



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 422 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	
O'zini tarbiyalash (self-development) g'oyasining Ibn Sino ta'limotidagi o'rni	229
Usmanova E'zoza Zokirjonovna	
Оценка динамики физиологических показателей волейболистов 12–16 лет в предсоревновательный и соревновательный периоды.....	234
Умматалиева Шерзода Шерали угли	
Individual sport turlarida sportchilarning natijadorlik kompetensiyasini motivatsion omillar asosida shakllantirish.....	239
Baratov Nasriddin Karshibayevich	
O'smirlarda internetdan ortiqcha foydalanishning psixologik oqibatlarini	243
Fayziyeva Nodira Sobirovna	
Transakt analiz: shaxslararo muloqotni tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslari	247
Nilufar Sayfidinovna Sangirova	
Inklyuziv ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)	252
Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich	
O'zbek milliy kurashining tarixiy rivojlanish bosqichlari va uning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati.....	257
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Almardanov Xasan Asqarovich	
Belbog'li kurashning shakllanishi va rivojlanish tarixi: jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va metodik imkoniyatlari	261
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqizilov Muxammadbek Sherali o'gli	



Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	265
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqobilov Jamshid G'ulomovich</i>	
Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	270
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Nurullayev Fazliddin Murodulla o'gli</i>	
Raqamli muhitda shaxs xulq-atvori dinamikasi (bolalik va o'smirlilik misolida)	275
<i>Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li</i>	
O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslari	278
<i>Suvanova Baxtigul Baxridinovna</i>	
Xalqaro tajriba asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	283
<i>Azimov I. T., Mirzayeva N. I.</i>	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda didaktik vositalardan foydalanish	288
<i>Ziyaboyeva Sevara Saydullayevna</i>	
Yuqori malakali o'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasi	292
<i>Nazarov Nuriddin Baxranovich</i>	
Maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokchilarning roli	297
<i>Jabborova Yulduzxon Hasan qizi</i>	
Tibbiyotda nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish usullari	301
<i>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</i>	
Ichki kasalliklarni tashxislashda klinik fikrlashning o'rni	304
<i>Tilavova Muqaddas, Hasanova Munisa, Mamatqulova Fayzo, Hakimova Xonbuvi Hakimovna</i>	
Транснациональные компании и проблема суверенитета национального государства	307
<i>Ф. Равшанов, Л. Сохибова</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	311
<i>Muhammadiyeva Manzura Maratovna, Musulmonova Sabrina Akmal qizi</i>	
Texnologik ta'limda xorijiy tajriba	316
<i>Lochinbek Abdirasulov</i>	
Talabalarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	319
<i>Saffarova Mohidil Axmadovna, Mustafayeva Feruza Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi asosiy resurslari: "ona tili" darsligi, mashq daftari, o'qituvchi kitobi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida	324
<i>Soatova Hilola Shuhrat qizi</i>	
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida	328
<i>R. D. Mustayev, H. F. Abduvositov</i>	
Русскоязычная литература Узбекистана современного периода: проблематика, поэтика и художественный анализ	332
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	335
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonida targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslari	339
<i>D. G. Umnov</i>	
Ona tili darslarini ikkinchi til tamoyillari asosida tashkil etish masalalari	344
<i>Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni pedagogik jihatlardan tashkil etishning nazariy va amaliy aspektlari	347
<i>Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars jarayonini takomillashtirish metodikasi	351
<i>Muhammadjonova Durdonaxon Bahromjon qizi</i>	
Tarix darslarini modellashtirishda pedagogik metodlar tasnifi va ularning samaradorligi	354
<i>Ikrom Qodirov</i>	

Hadassah gospital maktabi modelining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik samaradorligi va uni O'zbekiston gospital maktablariga tatbiq etishning ahamiyati	357
<i>Abdullayev Aziz Habibullayevich, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li, Alimova Dono Abbosxanovna</i>	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	361
<i>Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich, Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida o'quvchilarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari	364
<i>Babakulova Dilnoza Ramazonovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda nutqiy nuqsonlarning oldini olish va o'quvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	367
<i>Baxtiyorova Nastarin Baxriddinovna, Daminova Dilbar Melimurodovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari.....	370
<i>G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Raxmatova Shaxlo Mansurovna</i>	
Ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi	373
<i>Jo'raboyeva Turg'unoy Ikromjon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi.....	377
<i>Kozimova Sadoqat</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari	380
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar.....	383
<i>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni.....	386
<i>Nurulloev Firuz No'monjonovich</i>	
Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida).....	390
<i>Sabirov Kaxramon Bektursun o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....	393
<i>Tillayeva Vasila O'ktam qizi</i>	
Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni	398
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish	402
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini o'qitish orqali talabalarining og'zaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish	406
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов.....	409
<i>Гуламов Жасур Баходирович</i>	
Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций средового воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии	413
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	



INGLIZ TILI DARSLARIDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINING O'ZIGA XOSLIGI

Jo'raboyeva Turg'unoy Ikromjon qizi

Namangan davlat universiteti 2- bosqich tayanch-doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'qitish jarayonida uchraydigan metodik muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot sinf kuzatuvlari, o'qituvchi intervyulari va matn tahliliga tayandi. Natijalar strategiyaga asoslangan o'qitish samaradorligini ko'rsatadi hamda integrativ yondashuvning ilmiy-metodik qiymatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, kitobxonlik ko'nikmalari, o'qish strategiyalari, matn tushunish, akademik o'qish, motivatsiya, autentik matn.

Abstract: This article examines the specific characteristics of developing reading skills in English lessons and the main methodological challenges involved. The study draws on classroom observations, teacher interviews, and textual analysis of instructional materials. The findings indicate that strategy-based instruction improves comprehension and learner autonomy, while an integrative approach strengthens the scientific and methodological foundation of reading pedagogy.

Key words: English language, reading skills, reading strategies, text comprehension, academic reading, motivation, authentic texts.

Аннотация: В статье анализируются специфические особенности формирования читательских умений на уроках английского языка и ключевые методические трудности их развития. Исследование опирается на наблюдения уроков, интервью с учителями и анализ учебных текстов. Результаты подтверждают эффективность стратегически ориентированного обучения и обосновывают научно-методическую значимость интегративного подхода.

Ключевые слова: английский язык, читательские умения, стратегии чтения, понимание текста, академическое чтение, мотивация, аутентичные тексты.

KIRISH

Ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalari masalasi bugungi ta'lim amaliyotida faqat "matn o'qish" bilan cheklanmaydigan, ko'p qatlamli va kognitiv jihatdan murakkab kompetensiya sifatida tobora muhimlashib bormoqda. Global axborot oqimida chet tili orqali o'qish nafaqat leksik-grammatik bilimlarni qo'llash, balki ma'no qurish, muallif pozitsiyasini aniqlash, dalillash usullarini ajratish, manbani baholash, o'qish maqsadini boshqarish kabi yuqori darajadagi intellektual operatsiyalarni talab qiladi. Shunga qaramay, amaliyotda kitobxonlik ko'nikmalarini o'stirish ko'pincha tarjimaga tayangan, savol-javob bilan yakunlanadigan yoki matndan "yangi so'z" chiqarish bilan chegaralanadigan mashg'ulotlar shaklida qolib ketadi. Natijada o'quvchi o'qish jarayonini boshqaradigan strategik bilimdan ko'ra, parcha-parcha til birliklarini yodlashga ko'proq tayanadi; bu esa o'qish tezligi, tushunish chuqurligi va mustaqil o'qish motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi, ya'ni bir vaqtning o'zida til tizimi, matn tuzilishi, o'quvchi tajribasi va strategik faoliyatning o'zaro bog'liqligi yetarli darajada metodik modellashtirilmagan. Xususan, o'qishning turli turlari va maqsadlari o'rtasidagi farqlar, autentik va moslashtirilgan matnlarning didaktik funksiyasi, oldindan tayyorgarlik va o'qishdan keyingi ishlovning muvozanati, shuningdek, baholash mezonlarining strategik kompetensiyani qamrab olishi masalalarida amaliyot va nazariya o'rtasida bo'shliq seziladi. Ilmiy adabiyotda o'qish kompetensiyasi ko'pincha kommunikativ yondashuv, strategik kompetensiya va metakognitsiya doirasida izohlanadi ^{[1], [2]}, biroq mazkur yondashuvlarning mahalliy dars amaliyotiga moslashtirilgan, til va matn tabiatini hisobga olgan holdagi tatbiqi har doim ham tizimli yoritilmagan ^{[3], [4]}. Shuningdek, o'quvchining o'qishdagi motivatsion profili va sinfdagi o'qitish uslubi o'rtasidagi bog'liqliklarni aniq ko'rsatadigan tahlillar ham cheklangan.



Maqolaning maqsadi ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xos xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda strategiyaga asoslangan integrativ metodik modelning asosiy tamoyillarini aniqlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- *birinchidan*, chet tili o'qish kompetensiyasining tarkibiy komponentlarini va ularning darsdagi ko'rinishlarini konseptual tahlil qilish;
- *ikkinchidan*, sinf amaliyotida o'qitish jarayonining tipik mexanizmlari va muammoli nuqtalarini empirik kuzatuvlar orqali aniqlash;
- *uchinchidan*, o'quv matnlarining lingvistik va diskursiv xususiyatlari kitobxonlik strategiyalariga qanday talab qo'yishini tahlil qilish;
- *to'rtinchidan*, aniqlangan natijalar asosida metodik tavsiyalarni ilmiy jihatdan asoslash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot dizayni sifat jihatdan ustuvor bo'lgan aralash yondashuvga tayandi, chunki kitobxonlik ko'nikmalari sinfda qanday shakllanishini faqat yakuniy test natijasi bilan emas, balki jarayonning o'zi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlari, matn bilan ishlash usullari orqali tushuntirish maqsad qilindi. Metodologik asos sifatida strategik kompetensiya va metakognitiv boshqaruv g'oyalari qabul qilindi, bunda o'quvchining o'qish jarayonida rejalashtirish, monitoring va baholash bosqichlari muhim indikatorlar sifatida ko'rildi ^{[1]. [5]}. Shuningdek, chet tilini o'qitishda kommunikativ va matnga yo'naltirilgan yondashuvning uyg'unligi, o'qish faoliyatining maqsadga muvofiqligi hamda topshiriq dizaynining o'rni nazariy mezon sifatida belgilandi ^{[2]. [6]}.

Empirik ma'lumotlar uch yo'nalishda to'plandi. Birinchi yo'nalish sinf kuzatuvlari bo'lib, ingliz tili darslarida o'qish bo'limi qanday tashkil etilishi, oldindan tayyorgarlik, o'qish paytidagi yo'naltirish, o'qishdan keyingi muhokama va baholashning qanday ketma-ketlikda kechishi qayd etildi. Kuzatuvlarda o'qituvchining savol berish strategiyalari, o'quvchilar javoblarining turlari, lug'at bilan ishlashning roli va matnni tushunishni tekshirishning didaktik mexanizmlari tahlil qilindi. Ikkinchi yo'nalish yarim tuzilmali intervyular bo'lib, o'qituvchilarning kitobxonlikni o'qitish haqidagi qarashlari, asosiy qiyinchiliklar, tanlanadigan matnlar mezonlari, strategiya o'rgatishga munosabat va baholash amaliyoti aniqlashtirildi. Uchinchi yo'nalish o'quv materiallari va matnlarni tahlil qilishdan iborat bo'lib, darslik va qo'shimcha resurslarda berilgan matnlarning janri, leksik zichligi, sintaktik murakkabligi, kohezion vositalari, sarlavha va paragraflanishi, shuningdek, matn atrofidagi topshiriqlarning strategik yo'naltirilganligi o'rganildi.

Tahlil jarayonida kontent tahlili va tematik kodlash usullari qo'llanildi. Kuzatuv va intervyu materiallari "o'qish maqsadini belgilash", "matn tuzilishini ochish", "leksik muammolarni hal qilish", "inferensiya va xulosa chiqarish", "metakognitiv monitoring" kabi kategoriyalar asosida kodlandi. Matn tahlilida esa didaktik moslik mezonlari qo'llanilib, matnning o'qish turiga mosligi, o'quvchining tayanch bilimiga ulanadigan signallar, strategik topshiriqlar bilan ta'minlanganlik darajasi baholandi. Mazkur metodlar tanlanishining sababi shundaki, ular kitobxonlik ko'nikmalarining ko'rinmas komponentlarini, xususan, strategik qarorlar va o'qish jarayonini boshqarish amallarini aniqlashga imkon beradi hamda natijalarni faqat til xatolari bilan cheklab qo'ymasdan, didaktik jarayon sifatida tushuntirishni ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalar ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi uch asosiy qatlamda namoyon bo'lishini ko'rsatdi: lingvistik to'siqlar va ularni didaktik boshqarish, diskursiv-matn tuzilmasiga moslashish hamda strategik-metakognitiv faoliyatning shakllanish darajasi. Birinchi qatlamda kuzatuvlar shuni aniqladiki, dars amaliyotida matnni tushunish ko'pincha leksik birliklar soni bilan o'lchanadi: o'qituvchi yangi so'zlarni oldindan berishga intiladi, o'quvchi esa o'qish jarayonida har bir noma'lum birlikni izohlashga urinadi. Bunday yo'nalish matnning umumiy g'oyasini topish, muallif maqsadini anglash yoki dalil-misollar zanjirini kuzatish kabi global tushunishga xizmat qiladigan amallarni ikkilamchi holatga suradi. Natijada o'quvchida "to'liq tushunish" talabi haddan tashqari kuchayib, tanlab o'qish, taxmin qilish va kontekstdan ma'no chiqarish kabi tabiiy o'qish mexanizmlari yetarlicha ishga tushmaydi.

Ikkinchi qatlam bo'yicha matn tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar uchun murakkablik manbai faqat so'z boyligi emas, balki matnning diskursiv qurilishi hamdir. Xususan, ingliz tilidagi referensiya vositalari, bog'lovchi birliklar, mavzu-rema dinamikasi va paragraf ichidagi dalillash strukturalari o'quvchi uchun yashirin to'siq bo'lib chiqadi. Darsliklarda matnga doir savollar ko'pincha faktni topishga yo'naltirilgan bo'lib, kohezion signallarni kuzatish, argumentatsiya xaritasini tiklash yoki matnning kompozitsion bosqichlarini ajratishga xizmat qiladigan topshiriqlar nisbatan kam uchraydi. Bu holat o'quvchining "matn qanday ishlaydi" degan bilimni sust shakllantiradi va natijada o'qish jarayoni parcha-parcha informatsiyani yig'ish ko'rinishida qoladi.



Uchinchi qatlam, ya'ni strategik-metakognitiv faoliyat bo'yicha kuzatuv va intervyular o'rtasida muhim nomuvofiqlik aniqlandi. O'qituvchilar intervyuda o'quvchini mustaqil o'qishga tayyorlash, strategiyalarni o'rgatish kerakligini tan oladilar, biroq dars jarayonida strategiya ko'pincha implisit, ya'ni ochiq nomlanmagan va refleksiya qilinmagan shaklda qoladi. Masalan, sarlavha va rasmlar orqali taxmin qilish, skimming va scanning kabi o'qish turlari ayrim hollarda qo'llanadi, lekin ularning maqsadi, qachon va nima uchun aynan shu strategiyani tanlash zarurligi muhokama qilinmaydi. Natijada o'quvchi strategiyani situativ "topshiriqni bajarish" amali sifatida qabul qiladi, uni boshqa matn va vaziyatga ko'chira olish darajasi esa past bo'lib qoladi.

Shuningdek, natijalar o'qish motivatsiyasi va topshiriq dizayni o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi. Autentik, hayotiy mazmunga ega matnlar qo'llanganda o'quvchi matn bilan muloqotga kirishishga moyil bo'ladi, savollar ko'proq talqin va munosabat bildirishga yo'naltirilganda esa matnni chuqurroq qayta ishlash faollashadi. Aksincha, faqat tarjima va faktologik savollar bilan cheklangan darslarda o'quvchi o'qishni nazorat tekshiruv sifatida qabul qiladi, bu esa tez-tez o'qishdan qochish, sust ishtirok va "to'g'ri javob"ni topishga toraygan faoliyatga olib keladi. Matn atrofidagi topshiriqlar ichida oldindan faollashtirish, o'qish maqsadini aniqlash va o'qishdan keyin xulosalash hamda qayta ifodalashga qaratilgan ishlanmalar bo'lgan hollarda tushunishning barqarorroq ekanligi qayd etildi.

Baholash amaliyoti ham kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligini ochib berdi. Darslarda tushunishni tekshirish asosan savol-javob yoki test tipidagi topshiriqlar orqali amalga oshirilib, o'qish jarayonini boshqarish, strategiya tanlash, muammoli joyda qanday qaror qabul qilganini izohlash kabi ko'nikmalar baholashdan tashqarida qoldi. Natijada o'quvchi uchun "yaxshi o'qish"ning mezonini to'g'ri javoblar soni bo'lib qoladi, holbuki ilmiy yondashuvda o'qish kompetensiyasi jarayon va natijaning uyg'unligini, shuningdek, o'quvchining refleksiv pozitsiyasini ham qamrab oladi.

Olingan natijalar chet tili o'qish kompetensiyasi haqidagi zamonaviy qarashlar bilan izchil uyg'unlashadi va bir vaqtning o'zida mahalliy amaliyotdagi metodik siljishlar zarurligini ko'rsatadi. Metakognitiv yondashuv o'qishni rejalashtirish, monitoring va baholash bilan bog'liq strategiyalarni o'qitish samaradorligini ta'kidlaydi ^[1]. Bizning kuzatuvlar esa aynan shu bo'g'in darsda ko'pincha ochiq ko'rinishda shakllantirilmasligini, strategiyalar "o'z-o'zidan" paydo bo'lishi kutilishini ko'rsatdi. Bu holat o'qitishning natijaga yo'naltirilgan, lekin jarayonga kam e'tibor beradigan modelidan dalolat beradi; natijada o'quvchi o'qish jarayonini boshqarishga doir umumlashtirilgan bilimni hosil qilmaydi. Demak, metakognitiv komponentni didaktik jihatdan "ko'rinadigan" qilish, ya'ni strategiyani nomlash, modellash va refleksiya orqali mustahkamlash zarurati ilmiy asosga ega.

Kommunikativ yondashuv doirasida o'qish matn bilan muloqot, ma'no yaratish jarayoni sifatida ko'riladi, bunda topshiriqlar real kommunikativ maqsadga xizmat qilishi lozim ^[2]. Natijalar shuni ko'rsatdiki, matnlar hayotiy mazmun kasb etib, savollar talqin va munosabat bildirishga yo'naltirilganda o'qish motivatsiyasi ortadi va chuqur qayta ishlash faollashadi. Bu, bir tomondan, o'qishning motivatsion mexanizmi matnning mavzusi va topshiriqning intellektual talabi bilan bog'liqligini, ikkinchi tomondan esa, sinfdagi o'qish faoliyatini "nazorat"dan "izlanish" formatiga ko'chirish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan matn atrofidagi didaktik konstruktsiya o'qishning o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Rossiya metodik an'analari chet tilida o'qish ko'pincha turli o'qish turlarini farqlash, maqsadga muvofiq o'qish, til vositalarini funksional anglash bilan bog'langan holda sharhlanadi ^{[5], [7]}. Bizning tahlilimiz ham o'qish turlarini darsda formal tilga olish yetarli emasligini, ularni matn turi va topshiriq maqsadi bilan uyg'unlashtirish muhimligini ko'rsatdi. Masalan, scanning fakt topishga mos bo'lsa, skimming g'oya va kompozitsiyani aniqlashga xizmat qiladi; ammo dars amaliyotida ko'pincha bir xil savollar to'plami har qanday matnga tatbiq qilinadi. Bu didaktik "universallashtiruv" o'quvchining strategiya tanlash sezgirligini pasaytiradi. Demak, metodik jihatdan o'qish turlarini matn janri, leksik-sintaktik murakkablik va diskursiv signallar bilan bog'lab o'qitish zarur.

O'zbek metodistlari ham chet tili o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv, integratsiya va o'quvchi faolligini oshirish masalalarini alohida ta'kidlaydilar ^{[3], [4]}. Ushbu maqola natijalari bu yo'nalishlarni kitobxonlik ko'nikmalarining aniq mexanizmlari bilan bog'lashga imkon beradi: integratsiya deganda faqat o'qish va gapirishni bir darsda qo'shish emas, balki o'qishning lingvistik, diskursiv va strategik komponentlarini bir butun tizim sifatida boshqarish tushunilishi lozim. Chunki o'quvchi ko'pincha lug'at muammosini hal qila olmagan uchun emas, balki matnning referensiya zanjirini, dalillash mantiqini yoki muallifning implicit xulosasini ko'ra olmagan uchun tushunishda qiynaladi. Shunday ekan, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda "til birliklari" va "matn mantiqi" o'rtasidagi ko'prikn quradigan topshiriqlar, masalan, bog'lovchilar funksiyasini izohlash, anafolik ishoralarni aniqlash, paragraf vazifasini nomlash kabi amallar ilmiy-metodik jihatdan asosli yo'nalish bo'lib chiqadi.

Xalqaro tadqiqotlarda o'qish tushunishi ko'p komponentli model sifatida talqin qilinib, fon bilimlari, leksik baza, inferensiya, ishchi xotira va strategik boshqaruv o'zaro ta'sirda ishlashi qayd etiladi ^{[6], [8]}. Bizning natijalarda ham inferensiya va kontekstdan ma'no chiqarish amallari leksik "to'liq aniqlik" talabi sabab cheklanishi ko'rindi. Bu holat o'quvchini o'qishda tabiiy kompensator mexanizmlardan mahrum qiladi va o'qish tezligini



pasaytiradi. Shuning uchun o'qitish amaliyotida noma'lum birliklarni boshqarishning differensial modeli, ya'ni qaysi so'z matn ma'nosi uchun kritik, qaysi biri esa kontekstdan taxmin qilinishi mumkinligini o'rgatish zarur. Bunday yondashuv o'quvchining kognitiv resurslarini tejaydi va o'qish jarayonini ma'no qurishga yo'naltiradi.

Baholash masalasi ham muhokamada alohida o'rin tutadi. Agar baholash faqat natija, ya'ni to'g'ri javoblar soni bilan cheklansa, o'quvchi strategik rivojlanishni ikkilamchi deb biladi. Ta'lim psixologiyasi va didaktikada formatif baholash o'quvchi refleksiya qilishni kuchaytirishi, o'qish jarayonini ongli boshqarishga yordam berishi qayd etiladi^[9]. Natijalarimiz baholash mezonlariga strategik indikatorlarni, masalan, o'qish maqsadini ifodalash, matndan dalil keltirish orqali xulosa chiqarish, tushunilmagan joyni aniqlab qayta o'qish qarorini asoslash kabi elementlarni kiritish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv o'qishning o'ziga xosligi, ya'ni jarayonning strategik tabiati bilan mos keladi va o'quvchining mustaqil o'qish kompetensiyasini kuchaytiradi.

XULOSA

Maqolada ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi lingvistik bilim bilan cheklanmay, matnning diskursiv tuzilishini anglash va strategik-metakognitiv boshqaruvni rivojlantirish bilan belgilanishi asoslandi. Kuzatuv va tahlillar dars amaliyotida leksik yo'naltirilgan yondashuv ustunligi, strategiyalarni ochiq o'rgatish va refleksiya qilishning yetarli emasligi, shuningdek, topshiriq dizayni va motivatsiya o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ilmiy hissi shundan iboratki, kitobxonlikni o'qitish jarayonini lingvistik, diskursiv va metakognitiv komponentlarning integratsiyasi sifatida talqin qiluvchi metodik yo'nalish asoslab berildi.

Amaliy jihatdan, o'qish turlarini maqsad va matn janri bilan moslashtirish, kohezion signallar bilan ishlashni tizimlashtirish, strategiyalarni nomlash va baholash mezonlarini jarayon indikatorlari bilan boyitish ingliz tili darslarida o'qish tushunishini barqaror oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida tadqiqotlar turli yosh va tayyor-garlik darajalarida strategik o'qitishning ta'sirini uzoq muddatli kuzatuv asosida o'rganish hamda raqamli o'qish muhitida kitobxonlik ko'nikmalarining transformatsiyasini tahlil qilishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oxford R. L. Teaching and researching language learning strategies. – Harlow: Pearson Education, 2011. – 392 p.
2. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and methods in language teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.
3. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 336 b.
4. Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2003. – 256 b.
5. Бим И. Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника. – Москва: Русский язык, 1988. – 288 с.
6. Grabe W., Stoller F. L. Teaching and researching reading. – London: Routledge, 2013. – 328 p.
7. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – Москва: Академия, 2006. – 336 с.
8. Koda K. Insights into second language reading. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 352 p.
9. Brown H. D. Language assessment: Principles and classroom practices. – White Plains: Pearson Education, 2004. – 448 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.